HADIS ILMINING SULTONI

Giyasov Shuhrat Abvarovich
Kamoliddin Behzot nomidagi Milliy rassomchilik va dizayn instituti
“Amaliy grafika” kafedrasi o‘qituvchisi

Axatova Zohira Aktam qizi
Kamoliddin Behzot nomidagi Milliy rassomchilik va dizayn instituti
San’atshunoslik va Muzeyshunoslik fakulteti 1 kurs talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7682450

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk muhaddis Imom al-Buxoriyning siyratlari, xulq-atvorlari va fazilatlari to‘g‘risida va uning barchaga ma’lum bo‘lgan ‘’Al- jome as-sahih’’ning yaratilishi va axamiyati, zamondoshlari tomonidan ma’lum qilingan rivoyatlar va buyuk zotning sharafiga mustaqillikdan so‘ng qilinayotgan qator ishlar yoritilgan.


Kalit so‘zlar: Hadis ilmining sultoni, Buxoroi sharif, Xuroson, Imom al-Buxoriy, muhaddislar imomi, "al-jome as-sahih", "al-adab al-mufrad", "At-tarix as-sag'ir". Muhammad Mustafo, "At-tarix al-kabir", "At-tafsir al-kabir", Sahihil Buxoriy, Hartang qishlog'i, Samarqand, Imom al-Buxoriy saboqlari.

Аннотация: В этой статье рассказы современников о характере, поведении и качествах великого мухаддиса Имама аль-Бухари, а также о создании и значении его знаменитого «Аль-джаме ас-сахих». выделена честь великого человека.

Ключевые слова: Султан хадисоведения, Бухара Шариф, Хорасан, Имом аль-Бухари, Имом мухаддисов, ‘’аль-джоме ас-сахих’’, ‘’аль-адаб аль-муфрад’’, ‘’Ат-тарих ас-сагир’’, Мухаммед Мустафа, ‘’Ат-тарих аль-кабир‘’ ‘’Ат-тафсир аль-кабир’’, Сахихиль Бухари, Село Хартанг, Самарканд, Уроки имама аль-Бухари.

Abstract: In this article, the great Muhaddith Imam al-Bukhari's character, behavior and qualities, and the creation and importance of his well-known "Al-jame as-sahih" were reported by his contemporaries. after independence in honor of legends and greatnessa number of ongoing works are highlighted.

Key words: Sultan of Hadith science, Bukharai sharif, Khurasan, Imam al-Bukhari, Imam of muhaddiths, ‘’Al-jame as-sahih’’, ‘’Al-adab al-mufrad’’, ‘’At-tarikh as-sagiyr’’, Muhammad Mustafa, ‘’Al-tarikh al-kabir’’, ‘’Al-tafsir al-kabir’’ Sahihul Bukhari, Samarkand, Hartang village,



Hadis ilmining sultoni, odam bolasi tomonidan yozilgan eng to‘g‘ri kitob sohibi, Imom al-Buxoriy haqida va uning “Al-Jome’ as-Sahih kitobi islom dinida Qur’oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manbaa bo‘lib, ahli islom e’tiqodiga ko‘ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug‘i hisoblanadi’’[1]. Eng to‘g‘ri deb hisoblanadigan 6 kitob, yani mazkur olti kitob sohiblarining, ‘’…deyarli hammasi Markaziy osiyolik bo‘lib, ular: Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Muslim ibn al-Hajjoj (206/819 – 261/874), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (209/ 824 – 279/892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy (202/817 – 275/880), Imom Ahmad An-Nasoiy (215/830 – 303/915), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazib ibn Mojja (209/824 – 273/886) kabi siymolardir. Shular ichidan “Hadis ilmida amir al-mo‘miniyn” degan sharafli nomga sazovor bo‘lgan Imom al-Buxoriy alohida e’tiborga molik buyuk olimdir’’[2].

Bu zotning asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ibrohim al Buxoriy bo‘lgan**.** Mana shunday muhtaram zot Buxoroyi sharifda‘’…194 xijriy sana, shavvol oyining 13 kunida (810 milodiy sana, 20 iyul)…’’[3.] barcha muhaddislar imomi, Muhammad (s.a.v) ning muborak xadislariga durdonasimon sayqal berib, uni abadul-abad barhayot qilgan ulug‘ zot Imom al-Buxoriy dunyoga kelgan.

‘’Otasi Ismoil o‘z davrining yetuk muhaddislaridan, Malik ibn Alasning shogirdi va yaqinlaridan biri bo‘lib, tijorat ishlari bilan shug‘ullangan. Onasi taqvodor, diyonatli, oqila ayol edi. Otasi vafot etgach, uning tarbiyasi volidasi zimmasiga tushgan’’[4.] Ammo uning qalamiga mansub biror asar haqida ma’lumot topilmagan ekan. ‘’Biroq u Hamad ibn Zayd, imom Molik, Abu Muoviya kabi yirik muhaddislardan hadislar rivoyat qilgani, Abdulloh ibn al-Muborakning suhbatida bo‘lib, undan ta’lim olgani to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan…’’[5:b.5.] Manbalarda keltirilishicha Ismoil o‘ta taqvodor, xudojo‘y, halol bir inson bo‘lgan deb keltiriladi. ‘’Abu Abdulloh (imom al-Buxoriyning otasi) bandalikni bajo keltirayotgan chog‘ida uni ziyorat qilganimda, bor molu dunyoyimdan xarom yo‘l bilan, shubhali, nopok yo‘l bilan topilgan bir dirhamni ham bilmayman, deb iltijo qilganida mening nafasim bo‘g‘ilib, butun vujudim uning ulug‘vorligidan hech narsaday tuyuldi‘’[6]- deb

yozadi. Imom Buxoriyning shunday ulug‘ zot bo‘lishining asil sababi ham ana shunday taqvo va halollik bo‘lgan.‘’Imom al-Buxoriyning yoshlik paytlarida ko‘zlari to‘satdan yorug‘likni ko‘rishdan mosuvo bo‘ladi. Tabiblar tunda qattiq shamol bo‘lgani va ko‘ziga tuproq kirib shikastlagani, va uzoq vaqt davomida ko‘zlari ko‘ra olmasligi haqida aytadi’’[7]. ‘’Imom al-Buxoriyning onasi tunning chorak qismida o‘g‘lining haqqiga duo qiladi; ko‘p vaqt oldin qo‘shnisiga qarz bergan edi va qo‘shnisi chorasiz qolganini qarzni qaytarishga yana 1 oyga muxlat berishini va boshqadan qarz olib qaytarishi haqida aytadi, shunda uning onasi qarzdan kechishi haqida bayon qiladi, qo‘shnisi ham xursandligidan o‘g‘lining ko‘zlariga Alloh shifo berishini so‘raydi. So‘ng uxlab yotgan vaqtida tushiga Ibrohim halilulloh kirib Ko‘p duolar qilib yig‘laganingdan va qo‘shningga qilgan marhamatingdan Alloh taboroko va taolo o‘g‘lingning ko‘zini qaytardi deydi‘’[8]. Ona ertalab uyg‘onsa, Alloh o‘gliga ko‘rish qobiliyatini qaytarganini ko‘radi.

Imom al-Buxoriyga Alloh tomonidan bir buyuk qobiliyat, ulkan aql va kuchli xotirani bergandi. ’’U yodlab olishi uchun bir marta ko‘rishi yoki eshitishi yetarli edi’’[9]. Bu zot esa bunday in’omni hadis ilmiga sarfladilar. Aslida Alloh har bir bandani yaratarkan unga bir qobiliyat berib yaratadi. Ammo hamma ham uni kerakli yo‘lda ishlatishni bilmaydi.

Imom al-Buxoriy dastlabki saboqlarini maktabda oladi. ‘’…U 10 yoshidan boshlab o‘z yurtidagi turli rivoyatchilardan hadislar eshitgan …’’[10:b.65.] Buyuk alloma juda katta ishtiyoq va qiziqish bilan hadis ilmini o‘rganib oladi. ‘’Abdulloh ibn Muborak va Vakiy ibn Jaroh kabi olimlarning hadis to'plamlarini mutolaa qilib, yodlagan. Ustozi Shayx Doxiliy bilan hadis rivoyatchilari haqidagi qizg'in bahslarda qatnashgan’’[11]. Muhammad ilm talab qilish va hadis o‘rganishga juda kirishib ketgandi. ‘’Buxoriy 16 yoshga yetguncha, o‘z yurtidagi mashoyiqlardan hadis eshitib, yozib olib, xalifalikning turli viloyatlari tomon yo‘l oladi’’[12]. ’’825-yil Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Makkaga kelib, haj ibodatini ado etadi. Onasi va akasini Buxoroga qaytarib, o‘zi Makkada qoladi’’[13]. U ‘’4 yil Makkada yashagan. Yo‘l-yo‘lakay Balx, Basra, Kufa, Bag‘dod, Xums, Damashq, Misr, Makka va Madina singari’’[14] ‘’…turli musulmon davlatlari bo‘ylab sayohat qilib, o‘z davrining taniqli roviylardan ta’lim olgan’’[15].

Imom al-Buxoriyning illatli hadislarni bilishdagi benazir maxorati, mukammal ilmi va qobilayati xususida, zamondoshlari tomonidan juda ko‘p manbalarda etirof etilganini ko‘rishimiz mumkin. Toliblarga dars bergan.’’Hoshid ibn Ismoil ismli bir hamdars olimning guvohlik berishicha, Imom Buxoriy bir necha sheriklari bilan Basra shahrining yirik ulamolaridan biriga borib saboq olar ekan. Hammalari eshitgan hadis va rivoyatlarni ustozning og‘zidan chiqishi bilanoq batartib yozib olishga shoshilar ekanlar. Imom Buxoriy esa qog‘oz qalamsiz dars tinglab yuraverar ekan. Bir kuni talabalar: “O‘n olti kun ilgari olgan darsimizni Buxoriydan bir so‘rab

ko‘raylik-chi, esida bormikan?” – deyishib, imtihon qilishibdi. Hammalari daftarlariga qarab turishibdi, Buxoriy o‘n olti kun ilgari o‘tilgan darsni birorta kalima qoldirmay batartib yoddan o‘qib berganidan keyin, uning xotira va qobiliyatiga lol qolib, ayni chog‘da o‘zlari yozib olgan daftarlaridagi kamchiliklarni ham tuzatib olishibdi’’[16:b.3]. 16 kun ichida 15 ming hadis rivoyat qilingan edi o‘n olti kunda shuncha hadisni yodlash imkonsiz. Bir marta eshitganida xotirasiga abadiyga muhrlangan ekan. Alloh imom al-Buxoriyni xuddi hadis ilmi uchun yaratgandek! U bor etiborini faqat hadis ilmiga qaratgan.‘’Mutafakkir Abduraxmon Jomiy mashhur muhaddisning ilmiy-ijodiy salohiyatiga yuksak baho berib, Batha (Makka), Yasrib (Madina)da yasalgan tanganing sayqali Buxoroda kamolga yetdi’’[17]. Deb so‘z yuritgan ekan. Imom al-Buxoriy istedodli, o‘tkir zehnli hamda ziyrak olim bo‘lgan. "Bag‘dod shaxrida istiqomat qilgan paytida ko‘pincha qorong‘u kechalari oyning nurida ijod qilib, qorong‘u kechalari sham yorug‘ida kitob yozar ekan. Agar tunda bexosdan biror- bir fikr mulohaza kelib qolsa, shamni yoqib, darhol o‘sha fikrni qog‘ozga tushirar…’’[18:B.41], shu tahlitda ba’zan shamni yigirma martagacha yoqib uchirar ekan. Shunday ekan Qur’ondan so‘ng keyingi o‘rinda turadigan eng to‘g‘ri kitob maqomini olishi ham bejiz emas.

‘’Ulug‘ alloma o‘sha davrdagi Buxoroning taniqli muhaddislaridan sanalgan ad-Doxiliydan saboq olgan. Xadislarni o‘rganish bo‘yicha ushbu olim tashkil etgan to‘garakning shuxrati keng tarqalgan bo‘lib, uning faoliyati yoyilib ulkan samaralar bergan. Kunlarning birida ad-Doxiliy o‘z odaticha talabalarga saboq berar, al-Buxoriy ham boshqa tolibi ilmlar qatori dars tinglab o‘tirgan edi. Shunda ad-Doxiliy bir hadis isnodi haqida gapirib ‘’Sufyon Abu Zubayrdan, u Ibrohimdan’’, - deb zikr qildi. Shunda al-Buxoriy: ‘’Sufyon Abu Zubayr hech vaqt Ibrohimdan rivoyat qilmagan‘’, dedi va bu bilan uning ad-Doxiliyni bu sanad xususidagi xatodan ogoh qilishni istadi. O‘z shogirdidan bu so‘zni eshitgan ad-Doxiliy esa xayratga tushib, dag‘allik bilan uning so‘zini bo‘ldi. Al-Buxoriy o‘ta xotirjamlik bilan ustoz agar ishonmasangiz asl manbaga qarang, dedi. Ad-Doxiliy manbaga qarab, shogirdi aytgan gapni etirof qilib, tan oldi-yu, lekin o‘sha xadis sanadini qogo‘zga tuzatishni paysalga soldi. Rag‘bat yuzasidanmi yoki uni sinab ko‘rish uchunmi, xullas sanadni topib tuzatish masalasini al-Buxoriyning o‘ziga tashladi. Tashqariga chiqishgach, shogirdidan E, bola, bu yog‘i endi qandoq bo‘ladi?’’ – deb so‘radi. Al-Buxoriy esa xech bir kuttirmay ustoziga javob qildi: ‘’Zubayr ibn Adiy Ibrohimdan rivoyat qilgan’’, -dedi. Shundan keyin u (ad-Dohiliy) qalam olib yozganini tuzatdi va ‘’sen haqsan‘’-dedi’’. O‘sha vaqtda al-Buhoriy bor yug‘i 11 yoshda edi’’[19].

‘’Imom al-Buxoriy o‘zining butun faoliyati davomida ham ilmiy, imkoni bo‘lsa moddiy jihatidan odamlarga, ya‘ni Ollohning bandalariga biror navf yetkazishni o‘zining asosiy maqsadi qilib qo‘ygan edi. U doimo ilm ahllari-yu, ilm toliblariga, hatto ustozlar (ash-shuyuh) va muhaddislarga ham moddiy yordam ko‘rsatardi.

Tijorat qilganda har safar o‘zi ko‘rayotgan oylik daromadidan, ya‘ni foydasidan besh yuz dirhamni faqiru miskinlarga, ilm toliblariga sarflardi. Tolibi ilmlarga ma‘lum mablag‘lar (maoshlar) ajratib, ularni alohida qiziqishi, zavq-shavq bilan Payg‘ambar alayhissalom ilmlarini (hadisi shariflarini) o‘rganishga rag‘batlantirardi, ahli ilmga nisbatan g‘oyatda ko‘p ehson ko‘rsatardi. Ayni vaqtda imom al-Buxoriy o‘z shaxsiy hayotida, yeyish-ichishda va kiyinishda sira ham ortiqcha dabdaba va behuda sarfu-xarajatlarga yo‘l qo‘ymasdi, sabr- toqat va qanoat, chidamlilik uning uchun odat tusidagi tabiiy bir hol edi’’[20].

‘’Muhammad ibn Abu Hotamning yozishicha Imom al-Buxoriyning o‘zi suxbatlardan birida men bir ming sakson shayx (ustoz)dan yozganman degan’’[5:b.10], Bu zot umrini Rosullloh hadislarini yo‘lida o‘tqazdi. ’’Buxoriy Xijoz, Makka, Madina, Toif, Jiddaga qilgan rixlati 6 yil davom etgan. So‘ng Basra, Kufa va Bag‘dodga safar qiladi, Shom va Misrga O‘tadi. Bundan tashqari Xuroson, Marv, Balx, Xirot, Nishopur, Ray, Jibol shaxarlarda bo‘lib, bu shaxardagi olimlardan saboq oldi va hadislar to‘pladi’’[18]. ‘’Hijriy yilning 210 yillarida Iroqqa safar qildi. O‘sha vaqtda 16 yoshda edi shu yerdagi muhaddislardan ham hadis urgandi. Hadis to‘plash uchun Bag‘dodda 8 marta bo‘ldi. Har Bag‘dodda bo‘lgan paytida imom Ahmad Hanbalni suhbatida o‘tirgan’’[21]. ‘’Imom Ahmad Hanbal men bilan shu yerda qoling deb imom Buxoriyga taklif qiladi ammo Buxoriy onasi betobligini va bormasa bolmasligini aytadi. So‘ng u bilan xayrlashayotgan vaqtida shu on kelishidan juda qo‘rqqandim, siz shunday shogirt bo‘ldingizki ba’zi ustozlarimdan o‘rganmagan narsalarimni sizdan o‘rgandim’’[22] deb etirof etadi. Imom Ahmad Hanbal ulug‘ muhaddis olim, uning ustozi, hanbaliy mazhabining imomi bo‘lgan. Bu so‘zlardan ma’lumki imom Buxoriy imom Ahmad Hanbalning eng yaxshi shogirdi bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. ‘’Mana shunday og‘ir davrda Imom al-Buxoriy “Al-jome as-sahih” kitobini 16 yilda yozib tugatib, unga 7275 dan ortiq sahih hadislarni boblarga ajratib ajratib tartibli ravishda jamladi’’[23]. 16 yoshlik paytida ‘’Ishoq ibn Rohvayxani huzurida bo‘lgandik. Shunda u: birortangiz Rasulullohsallollohu alayhi va sallamning sahih hadislarini muxtasar bir kitob tarzida jam qilsangiz edi-dedi. Bu gap mening qalbimga chuqur o‘rnashib qolib o‘shandan boshlab ‘’Al-jome as-sahih’’ asarini yozishga kirishdim’’[24]. 16 yoshda boshlagan bo‘lsa, 32 yoshida bu ulug‘ kitobni xalqqa taqdim qilgan.



’’Malumotlarga ko‘ra, imom al-Buhoriy 600 ming hadisni to‘plagan, 100 ming ‘’sahih’’ va 200 ming ‘’g‘ayri sahih’’ hadislarni yodlagan’’[30]. ‘’ Bu mazkur kitob ‘’4 jilddan iborat, 600 ming hadisdan 7275 eng ‘’sahih’’ hamda 4000 takrorlanmaydigan hadis kiritilgan’’[25:b.54]. Ana shu hadislarning eng sahihlarini, bizga tanish bo‘lgan eng to‘gri kitob nomini olgan ‘’Al-Jome as-sahih ‘’ kitobiga kiritdi. Bu kitob ‘’Sahihi-Buxoriy’’ degan nom bilan ham mashhur, imom buxoriyning talifotlari.

Bu malumotga misol qiladigan bo‘lsak: "Bir kuni Bag‘dodda Imom Ahmad Xanbalning huzuriga borib tunda bir tush ko‘rgani va bu tushning tabirini bila olmayotgani haqida aytadi.Bu tushda Payg‘ambarimiz (s.a.v.) bilan birga saxobalar turgan ekan. Imom Buxoriy esa Payg‘ambarimiz(s.a.v.)ni hashoratlardan himoyalab yelpib turganini aytadi. Shunda Imom Axmad Hanbal ‘’Payg‘ambarimiz (s.a.v.) kimki meni tushida ko‘rsa haqiqatdan ham ko‘ripti chunki shayton mening ko‘rinishimga kira olmaydi’’ deganlar. Bu tushning tabiri juda oddiy, hasharotlardan yelpib turishingiz bazi yolg‘onchi roviylar u zotning hadislariga yolg‘on kiritib aytmagan gaplarini aytdilar deb tuxmat qilishadi. Siz esa o‘sha yolg‘on hadislarni daf qilasiz dedi’’[23]. Keyin Imom Buxoriy Basrada Payg‘ambarimiz (s.a.v.) haqlarida bir hadis rivoyat qilgani haqida eshitdim, shuni sahih yoki g‘ayri sahih ekanligini bilmoqchiman deb Bag‘doddan Basraga jo‘nab ketdi. ‘’Haligi odamning oldiga borsa u odamning eshagi qochib ketib, eshagini quvalab turganini va eshagini chaqirish uchun idishga xuddi yemish solgandek qilib ko‘rsatib idishnini ko‘tarib, eshagini chaqirayotgan holatni guvohi bo‘ldi va tabiatida yolg‘on ishlatgan kishi Rosululloh (s.a.v)ga nisbatan yolg‘on ishlatmaydi deb ishonmayman dedi va hadisni olmasdan ketdi’’[26]. ‘’Illatli hadislar haqidagi imom al-Buxoriyning mulohazalari juda mutavoze‘ va odob- ahloq yuzasidan bo‘lib, "uni shunday qoldirganlar (tarakahu) "u

tashlab ketilgan" (matruk), "tushirib qoldirilgan"(soqit), "bu haqda o‘zgacha bir fikr-mulohaza ham bor", "bu xususda avval o‘tganlar hech narsa demaganlar" va shunga o‘xshash beozor, oddiy va samimiy iboralardan tashkil topgan’’[20].

Imom al-Buxoriyning buyukligi ham shunda, bu buyuk zot hadis izlashda o‘ziga juda og‘ir shartlarni qo‘ygan. Hech bir roviy bunday shartlar bilan hadis to‘plamagan. ‘’Uning shartlarini boshqa roviydan farqi shundaki Matni va sanadi eng sahih bo‘lishligi agar bir kishi ikkinchi kishidan hadis eshitgan bo‘lsa avvalo u inson bilan ko‘rishishi kerak bo‘lgan’’[27], hatto kimdan eshitganliklarini bilib so‘ng aniq sahih ekanligiga ishonch hosil qilib keyin olgan ekan, boshqalar esa bir birlarini ko‘rmagan bo‘lsada olaverishgan. Juda katta sabr bilan, shoshilmasdan eng sahihlarini kuchli mulohaza bilan kiritdi. Izlanishlar davomida faqat shu kitob bilan cheklanmadi. ‘’Buxoriy yaratgan ’’Kitob al- Favoid’’ (‘’Foydali ashyolar haqida kitob’’), ‘’Al - jome al-kabiyr’’ (‘’Katta-tayanch’’), ‘’Xalq affol al-ibod’’ (‘’ Alloh bandalari ishlarining tabiati’’), ‘’Al-musnad al-kabiyr’’ (‘’Katta tayanch’’), ‘’At-tafsir al-kabiyr’’ (‘’Katta tafsir’’), ‘’Kitob al-xiba’’ (‘’Xayr-ehson haqida kitob’’). Buxoriyning asarlarining bazilari bizgacha yetib kelmagan, ba’zilari jaxonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi xaqida ma’lumot bor’’[28.b.279].

‘’Yusuf ibn Muso al-Marvaziy deydi: «Men Basra masjidida edim. Muazzin baland ovozda: “Ey ilm ahli! Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy tashrif buyurdi”, dedi. Shunda biz unga qarab yuzlandik. Biz soqollari qop-qora yosh yigitni ko‘rdik. U ustun orqasida namozni ado qildi. Namozdan so‘ng odamlar uni o‘rab olib, ularga hadis aytib yozdirishni so‘radilar. U bunga rozilik bildirdi. Muazzin ikkinchi marta masjidda baland ovozda: Ey ilm ahli! Barchangizga ma’lum bo‘lsinki, Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy bizlarga hadis aytib, yozdirishga rozilik bildirdi. Allohning izni bilan ertaga shu yerda yig‘ilamiz, dedi. Ertasi kuni muhaddislar, hofizlar, faqihlar, usul olimlar qisqasi Basra shahrining barcha olimlari va fozillari birma-bir yig‘ilib 1000 ga yaqin odam to‘plandi. Abu Abdulloh hadis so‘zlash uchun kelib o‘tirdi. U yozdirishni boshlashdan oldin shunday dedi: Ey ahli Basra! Men bir yigit bo‘lsam ham mendan sizlarga hadis aytib berishimni so‘radingiz. Men foydali bo‘lishi uchun sizlarga ma’lum bo‘lmagan shahringizdan bo‘lgan roviylar rivoyatidan aytib beraman”[29]. Demak u zamonning odamlari diniy ilm olishga juda chanqoq bo‘lishgan. Bu ma’lumotlar o‘z o‘zidan imom al-Buxoriy yosh bo‘lishiga qaramasdan odamlar bu buyuk zotni juda hurmat qilgan ekan.

‘’Abdul Asqardan rivoyat qilinadi samarqandda Rosulullohdan (s.a.v.) haqlaridagi hadisni talab qiladigan ahli ilm kishilarning 400 tasi imom Buxoriyni 7 kun davomida sinab adashtirmoqchi bo‘lishdi. Isnodi va Sanadi Shomliklardan bo‘lgan hadislarni tanlashdi ularni Iroqlarning sanadiga aralashtirishdi. Yamanliklarning sanadiga ikki haram ahlining sanadlarini aralashtirishdi. Barchasi sahih hadis lekin sanadlari boshqa-boshqa, imom Buxoriy barchasini to‘g‘irlab aniq-

aniq qilib aytib berdi’’[30]. Yetti kun davomida roviylar uni adashtirmoqchi bolishdi ammo buni iloji yo‘q. Albatta bu unga Alloh tomonidan berilgan bir in’omdir. ‘’Muhammad Nabi Xotim undan so‘rabdi siz kitobingizga kiritgan barcha hadislarni yoddan bilasizmi,- debdi. Uni ichiga kiritgan barcha hadislarim yodimda nimani to‘g‘ri bilib kiritgan bo‘lsam barchasi esimda, men nechta kitob yozgan bo‘lsam hammasini 3 marta qayta-qayta takror yozib so‘ng ommaga taqdim etganman’’[17] deb javob berdi.

Alloma kimdan hadis eshitgan bolsa o‘shalarning barchasini asli qaysi shaxardan kelib chiqqani, laqabi yoki kunyasi, aksariyatining esa qaysi shaxarda qachon vafot etgani to‘g‘risida aniq ma’lumotlar keltirgan. Bu ma’lumotlarni ‘’Imom al-Buxoriyning ustozlarining ismlari asarida aniq bilib olish mumkin. Bu kitob hajm jihatidan uncha katta bo‘lmagan, bor yo‘g‘I 16 varoqdan iborat qo‘lyozma. Chiroyli nash xatida yozilgan bo‘lib, xar bir sahifasida 17 satr bo‘lib, bag‘dodlik xattot Muhammad ibn al-Xasan ibn Muhammad Ali ibn al-Ibrohim tomonidan 632 xijriy yilning 19 shavvoli, juma kunida Damashq Jome masjidida ko‘chirilgan, ilmiy jihattan g‘oyatda qimmatlidir. Ushbu kitobda Imom al-Buxoriyning shox asarlari ‘’Sahih al-Buxoriy ‘’da keltirilgan 306 hadis roviylarining ismi shariflari alifbo tartibida to‘liq holda zikr qilingan ’’[5.b.11].

‘’Qachonki imom al-Buxoriy hadis ilmi bo‘yicha mukammallikka ega bo‘lib, ilmiy majlislar, saboqlar bera boshlagach va uning bu tarzdagi majlislari dovrug‘i xar tarafga tarqab, el orasida yoyilgach, ilm toliblariyu ahli donish bu saboqlarga shunchalik ko‘p yog‘ilib kela boshladiki, majlislarga odamlar sig‘may ketardi. Bu tartibdagi ilmiy majlislar Basra, Bag‘dod, Xijoz, Balx kabi shaxarlarga uyushtirilib, alloma umrlarining oxirlarida o‘z vatanlari bo‘lgan Buxoroda ham hadislardan dars bergandilar’’[16]. Imom al-Buxoriyning shogirtlari keladigan bo‘lsak ular son sanoqsiz, juda ham ko‘p bo‘lishgan. ‘’Manbalarda keltirilishicha, olimning shoh asari bo‘mish ‘’Al jome- as sahih’’ (Ishonchli hadislar to‘plami)dan uning bevosita rahbarligida to‘qson ming kishi ta’lim olgan. Ular safida mashhur muhaddislar- muslim ibn Hajjoj, Imom Termiziy, Imom Nasoiy, ibn Xuzayma, Imom Abu Dovud, Muhammad ibn Yusuf Firabriy, Ibrohim ibn Ma’qal Nasafiy kabi ko‘plab ulug‘ olimlar bor edi’’[31.b.9]

Imom al-Buxoriy xorijdan qaytgach, ‘’o‘z vatani Buxoroda ko‘plab shogirdlar va ulamolarga hadis ilmidan saboq berish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Ko‘pchilik uni hurmat qilgan, ammo ba’zi hasadgo‘y, qora niyatli kishilar al-Buxoriyni ko‘rolmas edilar. Natijada hasadgo‘ylarning xatti-harakati tufayli Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy bilan al-Buxoriyning aloqasi buzilib qoladi. Bunga sabab amir, Buxoriydan huzuriga kelib “Al-jome’ as-sahih”, “At-ta’rix” kitoblarini o‘qib berishni talab qiladi. Lekin al-Buxoriy “Men ilmni xor qilib, uni hokimlar eshigi oldiga olib bormayman, kimga ilm kerak bo‘lsa, o‘zi izlasin. Lekin Alloh oxirat kuni ilmni

yashirmay uni toliblarga sarf qilgani uchun meni kechiradi”, degan javobni aytadi’’[32].bu javob albatta amirga yoqmaydi. G‘animlar bunday qulay fursatdan foydalanib, Imom Buxoriy sha’niga turli ig‘volarni tarqatadilar. Shu ig‘vo va fitnalarga ishonib, amir Imom Buxoriyni shaharni tark etishga majbur qiladi. Natijada Imom Buxoriy Samarqandning Xartang qishlog‘idagi qarindoshlarining uyiga ko‘chib ketadi. O‘sha yerda qisqa vaqt istiqomat qilganidan so‘ng Imom Buxoriy betoblanib, hijriy 256 yili (milodiy 870 yil 1 sentabr) 62 yoshida vafot etadi’’[16:b.3]. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov, Yuksak manaviyat yengilmas kuch asarida shunday deydi ‘’Imom Buxoriy Vafot etgan yili, Yani milodiy 870 yili tariximizdagi yana bir mumtoz siymo Imom Moturidiy tavallud topgan ekan. Bu voqea zamirida shaxsan menga iloxiy bir bog‘liqlik. Ollohning buyuk marxamati bordek, bamisoli Imom Buxoriyning nurli qalamini Imom Moturidiy olib, ul zotning xayrli ishlarini davom ettirishga bel bog‘lagandek tuyuladi’’[33:b.39.].

Hozirgi kunda allomaning boy ilmiy meroslari va u zotning islom olamida tutgan o‘rinlarini keng ommaga tanitish ishlariga doir Prezident hamda hukumat qarorlari qabul qilindi. Bunga misol qilib ‘’O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 mart kuni qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida 2855-sonli Qarori buning yaqqol misoli bo‘la oladi’’[34] va shungacha bo‘lgan ‘’1998 yilning 23 oktabrda Samarqandda hadis ilmining sultoni imom Buxoriy tavalludining 1225 yillik to‘yi tantanalari bo‘lib o‘tdi’’[35:b.473].’’Imom al Buxoriyning ma’naviy merosini chuqur o‘rganish va keng tarqatish maqsadida, xalqaro fond tashkil etilib, 2000 yildan buyon o‘zining o‘zbek tilidagi ma’naviy-ma’rifiy ilmiy-adabiy “Imom al Buxoriy saboqlari” jurnalini chop etib kelmoqda’’[36].“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 10-iyuldagi 483-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori bilan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi (keyingi o‘rinlarda Markaz deb ataladi) davlat muassasasi shaklida tashkil etildi’’[37]. Buxoriyning xalqaroilmiy-tadqiqot markazi muzeyida uning hayot yo‘li-ilmiy ma’naviy merosi haqida ma’lumot beruvchi freskalar, nodir asarlar va bir qator eksponatlar o‘rin olgan. Bu freskani Alisher Aliqulov boshchiligida amalga oshirilgan. ‘’Uning shoh asarlari hisoblanmish “Al-Jome’ as-sahih” va “Al-adab al-mufrad” kitoblari Toshkentda qaytadan nashr qilinishi al-Buxoriy merosini o‘rganishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.’’[38]. ‘’Bu ulug‘ zotning g‘oyat boy merosini asrab-avaylash va o‘rganish, marifatiy islom to‘g‘risidagi ta’limotini keng yoyish maqsadida biz Samarqand

shahrida Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qildik’’[39] deydi Shavkat Mirziyoyev.

Mazkur kitob islom olamida Qur’oni karimdan keyingi eng mo‘tabar manba deya etirof etiladi. Imom Qastaloniy Buxoriyning yozgan asarlariga qarata shunday deydi: ‘’ imom Buxoriy asarlari quyosh nuri tushgan yerigacha yetib bordi. Dunyoning hamma joyini egalladi. Buni hech kim rad qila olmaydi. Asarlarining eng ulug‘I ‘’Al-jome as-sahih’’ asaridir’’. Darhaqiqat mazkur asar ‘’Sahihul Buxoriy nomi bilan mashhur bo‘ldi. Bunga sabab albatta buxoriyning siyratlari, yuksak xulq-atvor egasi ekanliklari, benazir istedodlari deya olamiz. Buyuk muhaddis, olim bobomizning serqirra ilmiy merosi asrlar davomida insonlar etiboridan chetda qolmasdan, yuksak etirof etilib, hozirgi kunga qadar muhim manbalardan biri sifatida alohida qadrlanib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

7. https://religions.uz/uz/news/detail?id=501
8. Imom al-Buxoriy (810-870) | saviya.uz
3. https://bilimlar.uz/imom-al-buxoriy-haqida-hayoti-va-ijodi/
4. **Imom al-Buxoriy - Vikipediya (wikipedia.org)**
5. Buyuk yurt allomalari. 2- nashri.Toshkent 2018
6. Abdulloh domla - imom Buxoriy hayotlari | To'liq darslik
7. Kutilmagan dard | Imom al-Buxoriy 2-qism
8. Shifo | Imom al-Buxoriy 4-qism
9. https://www.bukhari.uz/?p=23947&lang=oz
10. Manaviyat yulduzlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent- 2001
11. https://proc.uz/allomalar/imom-al-buxoriy-hayoti-va-ijodi
12.https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/tarix/qomusiy-olimlar-sarkardalar/imom-ismoil-al-buxoriy-810-870
13 https://uz.wikipedia.org/wiki/Imom_al-Buxoriy
14. https://uz.denemetr.com/docs/134/index-235095.html
15 **Imom Ismoil al-Buxoriy (arboblar.uz)**
16. Hamidulla HIKMATULLAYEV, Abdulaziz MANSUROV AXLOQ-ODOBGA OID HADIS NAMUNALARI TOSHKENT “FAN” NASHRIYOTI 1990
17.Imom Al Buxoriy haqida ° Abdulloh domla ° Абдуллох домла ° ilmnuri - YouTube
18. К.Хошимов, С.Нишонова,М.Иномова,Р.Хасанов.Педагогика тарихи.Тошкент «уқитувчи» 1996
19. Имом "Ал - Бухорий " Хақида Тўлиқ Маълумотлар | Абдуллоҳ Домла | Ustoz Abdulloh Domla.

20.Имом ал-Бухорий: ҳаёт йўллари (qadriyat.uz)

21.Abdulloh Domla | 13-Dars Imom Buxoriy (Buyuklarning Sirlari) | - Ilmnuri Official

22. Ahmad ibn Hanbalning e’tirofi | Imom al-Buxoriy 18-qism

23. https://religions.uz/uz/news/detail?id=501

24. Имом ал-Бухорий: Шоҳ асар - "Ал-жоме‘ ас-саҳиҳ" (qadriyat.uz)

25. **K.Hoshimov.S.Nishonova.Pedagogika tarixi.Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent 2005**

26. Yolg‘onchidan hadis olinmaydi | Imom al-Buxoriy 17-qism

27. «Jome’us-Sahih» kitobining shartlari | Imom al-Buxoriy 15-qism Islom uz

28. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2. Beshik-Gidrofizika. Davlat ilmiy nashriyoti TOSHKENT

29. https://www.bukhari.uz/?p=23947&lang=oz

30.Imom al buxoriy - поиск Яндекса по видео (yandex.ru)

31.IMOM BUXORIY.IMOM BUXORIY XALQARO ILMIY TADQIQOT MARKAZI.G‘oya mualliflari:Shahzot Islomov, Shovosil Ziyodov.IBXITM-2022

32. Mavzu: Buxoro viloyatida yashab ijod qilgan buyuk allomalar Reja (fayllar.org)

33. Islom Karimov. Yuksak Manaviyat-yengilmas kuch. Toshkent ‘’Manaviyat’’ 2008

34. https://religions.uz/uz/news/detail?id=502

35. Islom Karimov. Manaviy Yuksalish yo‘lida. Toshkent O‘zbekiston 1998.

36.Imom Ismoil al-Buxoriy (arboblar.uz)

37.Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi - Vikipediya (wikipedia.org)

38. Imom al-Buxoriy (810-870) | saviya.uz

39. https://www.bukhari.uz/